

## XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR FOYDALANISHNING AHAMYATI.

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 1 fakulteti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

**Amritdinova Aminabonu Mustaitddinovna.**

**Ilmiy raxbar: Nafisa Axmatilloyevna Ibadova.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chet tillarini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanishning ahamyati xususida so'z yuritilar ekan, unda o'quvchilarni ta'lim jarayonida yangi metodlarni qo'llash orqali til o'rganuvchining faolligini, qiziqishini oshirish va shu bilan bir qatorda dars samaradorligini yanada takommilashtirish haqida malumot berib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** chet tili, ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar, VAK usuli, objects.

Bugungi kunda chet tillarini bilishga bo'lgan talab tobora oshib bormoqda, sababi dunyo taraqiy etib turgan bir pallada, deyarli har soha egasi o'z ona tilini mukkammal bilishi bilan bir qatorda, bir nechta xorijiy tillarini bilishlari va muloqot qilia olishlari muhim o'rinnas etadi. Masalan: turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy, jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bu be'jizga emas. O'zbek xalq maqolida „Til bilgan, el bilar“ deganidek boshqa xalqlarning urf odatlar, turmush tarzi, umuman olganda o'sha xalqning qalbini bilish uchun avvalo o'sha xalqning tilini bilish lozim.

Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun ,albatta, kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi.

Interfaol metod – ta’lim jarayonida o’quvchilar hamda o’qituvchi o’rtasidagi, faollikni oshirish orqali o’quvchilarning bilimlarni o’zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo’llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o’tkazish, o’quv materialini erkin bayon etish va foydalanish imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar ko’pligi, o’quvchilar tashabbus ko’rsatishiga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo’lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo’lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o’ziga xos ahamiyatga ega. [2]

VAK zamonaviy o’qitish usuli bo‘lib, uning ta’siri aniq ko‘rinadi. Biz o’quvchilarni uchta toifaga ajratamiz: Vizual, Audio va kinestetik (harakatlar). Ularning qaysi toifaga tegishli ekanligini aniqlash yoki o’qituvchi o’z o’quvchilari qaysi toifaga kirishini bilishi kerakligi bilan bog’liq. VAKda V-vizual ma’lumotni ko‘rish, A-audio ma’lumotni eshitish orqali toplash, K- esa ma’lumotni his qilish ma’nosini bildiradi. O’qituvchi dars o’tayotganda o’quvchilar toifasini naturada saqlashi kerak, chunki ba’zi talabalar ma’lumotni ushlaydilar. Ko’rish, eshitish yoki his qilish orqali. Shunday qilib, ular bir xil materialni turli yo’llar bilan taqdim etishlari kerak.

VAK o’qitish usuli 1920-yillarda disleksiysi bo’lgan bolalarga yordam berish uchun joriy qilingan. Biroq, uning ta’siri zamonaviy davrda yanada samaraliroq. Internet davrida videolarni tomosha qilish va o’rganish o’qitishning mashhur yangi vositasiga aylanadi. Talabalar tushunishadi. Materialni o’qish o’rniga ko’rgan, eshitgan yoki his qilganda tez. Bundan tashqari, o’quvchi ommaviy axborot vositalarining birortasi bilan cheklanib qolmaydi, chunki ular hatto uchta o’qitish vositasidan ham foydalanishlari mumkin..

Objects (20 Buyumlar). Bir vaqtning o’zida ushbu o’yin orqali o’quvchilarni xotirasini va so’z boyligini tekshiriladi. Sizga faqatgina doska va 20ta sinf xonada joylashgan buyumlar kerak bo’ladi. Siz hattoki o’zingizning sumkangiz yoki yoningizdagи buyumlariningizdan foydalanishingiz mumkin. Buyumlarni hammasini stol ustiga qo’yib chiqing va o’quvchilarining hammasini chaqirib ularga qarashlarini aytинг. Keyin hamma buyumlarni bir daqiqadan keyin qog’oz (yoki shunga o’xshash biror narsa) bilan yoping. Hamma o’quvchilariningizdan joylariga qaytib bir varoq qog’ozga eslab qolgan buyumlarini ingliz tilida yozishlarini so’rang. Hamma tugatganidan so’ng esa buyumlar ro’yxatini doskaga yozing va o’quvchilardan o’zlarini tekshirishlarini so’rang. Muqobil variant sifatida so’zlarni birma-bir o’qib berib tog’ri topganlarini belgilab borishlarini so’rashingiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda ,tadim etilgan ushbu metodlar chet tillarini o’itish jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari innavatsion metodlarning

afzalliklari shundaki, ushbu usullar orqali til o'rgatilsa o'quvchilarning ijodiy raqobatlashishga bo'lgan qiziqishlari, nutq ko'nikmalari, tashkilotchilik ko'nikmalari rijovlanishiga imkon yaratadi. Natijada o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati shaklanadi. Dars esa qiziqarli, barcha uchun tushunarli tarzda olib boriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирхамиева, И. М. Ingliz tilini o'qitishda innovatsion usullardan foydalanish / И. М. Мирхамиева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 21 (311). — С. 797-799. — URL: <https://moluch.ru/archive/3/>.
2. <https://www.eslessonhandouts.com/drilling-in-language-teaching/>

### Internet resurslari;

1. (<https://www.eslessonhandouts.com/drilling-in-language-teaching/>).
2. <https://hasanboy.uz/ingliz-tili-darslarida-qiziqarli-oyinlar/>.
3. <https://moluch.ru/archive/138/39058/>.